

## Abu Ali Ibn Sinoning Ma’naviy-Ma’rifiy Qarashlari To‘G‘Risida...

Kodirova Sh. A<sup>1</sup>, Raxmatov A. M.<sup>2</sup>

**Annotatsiya:** Buyuk ajdodimiz Abu Ali ibn Sino nafaqat buyuk tabib bo‘lish bilan birga ma’rifatparvar olim, murabbiy edi. U o‘zining ma’naviy –ma’rifiy ,ta’lim-tarbiyaga oid qarashlarini ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan bog‘liq holda ifodalab, ularni bir qator asarlarida talqin etgan. Maqolada qomusiy olim Abu Ali ibn Sinoning ma’naviy-ma’rifiy qarashlari bayon qilingan va tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** ma’naviy-ma’rifiy tarbiya, ma’rifat,ilm, ezgulik

O‘zbekiston zamini haqli ravishda o‘zining buyuk ajdodlari, ularning jahon ilm-fan taraqqiyotiga qo‘shgan behisob intellektual merosi bilan haqli ravishda faxrlanadi. Ana shunday qomusiy ajdodlarimizdan biri bu-Abu Ali ibn Sino edi. Buyuk alloma, qomusiy olim Abu Ali ibn Sinoning hisoblashicha, inson olam rivojlanishining toji bo‘lib, u insonning sog‘lom bo‘lishi, baxtiyor hayot kechirishi, ma’rifatli va ilmlı bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etishini o‘zining ilmiy-pedagogik-tarbiyaviy qarashlarida bayon etgan. Shuningdek, olimni ma’naviy-tarbiyaviy o‘gitlari bilan ham milliy pedagogika asoschilaridan biri deb hisoblash ham mumkin. Ibn Sino insonlarni, ayniqsa yoshlarni ilm o‘rganishga va ma’lum bir sohaning mutaxassisini bo‘lishga chaqirgan. “Ilm — narsalarning inson aqli yordami bilan o‘rganilishidir”, deb uqtiradi olim.

U kimki ilm cho‘qqisini egallamoqchi bo‘lsa, ko‘zlagan maqsadidan og‘ishmasdan yo‘lda uchraydigan barcha qiyinchiliklarni bosib o‘tishi lozimligini, bunda insonlarda bo‘ladigan bardosh-matonat va g‘ayrat muhim o‘rin tutishini asarlarida ko‘rsatgan. Olim doimo olingan bilimlarni boyitish, rivojlantirish va uni xalqqa foyda keltirish uchun qo‘llash lozimligini ham aytib, shunday deydi: “Kimki ilm masjidiga kirgan bo‘lsa, dunyoviy ilmlarni puxta egallagan bo‘lsa va shu bilimini xalqqa foyda keltirish uchun ishlata digan bo‘lsa, u eng mard va komil insondir”. Shuningdek, Ibn Sino o‘z asarlarida oliy ahloq, ma’rifatli, ma’naviy etuk inson haqida, uni kamol toptirish yo‘llari haqida ham yozgan. U “Kitob un-najot” asarida “Ma’rifatli insonning yuzidan nur yog‘ilib turadi va bu nur insonning hayoti davomida olgan bilimlari bilan mujassamlashib, insonni yanada ilm cho‘qqilarini egallashga undaydi”, deb hisoblaydi. Ibn Sino ma’rifatsiz va madaniyatsiz kishilarni ko‘zi ojiz kishilar nazarida tutgan. U kishilarni ogohlantirib, turli xil manfur kishilarning ilmiy bilimlarni qoralashlaridan ogoh bo‘lishni ta’kidlagan.

Buyuk ajdodimiz o‘zining odob-axloqqa bag‘ishlangan kitoblarida esa kamtarlik ota-onaga hurmat, ilm olishga havas kabi muhim masalalar haqida qimmatli fikrlarini ilgari suradi. Ibn Sino o‘zining “Uyun alhikma” («Hikmat buloqlari») asarida ham ahloqqa oid fikr-mulohazalarini bayon etadi. Unda aytilishicha, insonlar bir-biri bilan do‘s-t-inoq bo‘lib yashashi, ularda insonparvarlik ruhi rivojlanishi lozim. Insonlar kamtar, irodasi kuchli, tejamkor bo‘lishi zarur. Insonda mehnatga muhabbat, yaxshi axloqiy sifatlar va halollik doimo ustun turishi kerak. Yaxshi xulqli kishilarda insonlarning eng yaxshi xislatlari mujassamlashgan bo‘ladi. Shuningdek, asarda kishidagi odamshavandalik, bir kori- xayr qilishga ishonch, iroda, bu borada tadbirkorlik, do‘s-tga nisbatan hurmat- ehtirom, dushmanga nisbatan nafrat xislatlarining bo‘lishi kerakligi haqida fikr yuritiladi.

Olim bola tarbiyasiga ham oid ham o‘zining qimmatli o‘gitlarini bayon etadi. Jumladan, alohida u bola tarbiyasi bilan avvalo oila, ota-ona shug‘ullanmog‘i lozim, deydi. Chunki inson avvalo oilada kamolga

<sup>1,2</sup> Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent, O‘zbekiston



etadi. Olim oilada ota-onaning vazifasi va burchiga katta e'tibor beradi. Oila munosabatlariga to'xtalar ekan, ayniqsa ota-onalarning oilada mehnatsevarligi bilan farzandlarini ham kasb va hunarga o'rgatish borasida muhim fikrlar bayon etadi. Hatto Ibn Sino yoshligidan bola tarbiyasiga loyiq tarbiyachini ham ota-onaning o'zi tanlashi lozimligini uqtiradi. Ibn Sino enaganing to'g'ri tanlanishi (estetik did bilan) bolaning sog'lom, madaniyatli, ko'ngildagidek bo'lib o'sishiga zamin ekanligini ta'kidlaydi. U bu xil qarashlarni o'zining arab tilida yozilgan she'riy asari — tibbiy poemasida bayon etgan. Bunga uning shu asaridagi "Bola tug'ilishi va tarbiyasi tadbiri haqida", "Go'dakka xos bo'lgan tadbirlar haqida" kabi boblari misol bo'la oladi. Shuningdek, alloma o'qituvchi -tarbiyachining ham insonning ma'naviy-ma'rifiy shakllanishida o'rni muhim ekanligini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, o'qituvchi jasur, halol, odobli, samimiy va o'zi shaxsan namuna ko'rsata oladigan bo'lishi kerak.

Ibn Sino buyuk olim, faylasuf, tabib bo'lish bilan birga, buyuk ma'rifatparvar, buyuk murabbiy edi. Alloma ta'lim-tarbiya, ma'naviy-ma'rifiy , insoniy xislatlar odobi haqida juda ko'p qimmatli fikrlar yuritgan Bu haqda u shunday aytadi:

#### **O'n narsa hamma ezgulikning manbaidir:**

1. To'g'ri so'zlashish va ishslash;
2. Halol, pok mehnat qilish;
3. Hammaga insof,adolat bilan muomala qilish
4. Nafs orzulariga ortiqcha berilmaslik;
5. Olim-fozillar bilan suhbatlashish,ular suhbatidan bahramand bo'lish;
6. Kattalarning izzat-hurmatlarini bajo keltirish;
7. Chin va samimiy do'stlik;
8. Muhtojlarga yordam etish va ularga in'om-ehson qilishni unutmaslik;
9. Xudbin bo'lmaslik;
10. Nodonlarga nasihat etish.

Qomusiy olim Abu Ali Ibn Sinoning o'z davridagi innovatsion g'oyalari, tibbiyotdagi kashfiyotlari, xalq tabobatiga qo'shgan ulkan hissasi, yoshlarni tarbiyalashdagi ahloqiy va tarbiyaviy qarashlari mana o'n asrdan ortiq vaqt o'tayotgan bo'lsa ham o'z qadru-qimmatini, ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Buyuk ajdodimiz Abu Ali ibn Sinoning o'zi ham u istagan "fozil va komil inson" kabi asrlar osha ardoqlanib, e'zozlanib boraveradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Абу Али ибн Сино Тиб қонунлари Сайланма З-жилд Т.А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти 1992 й.
2. Абу Али ибн Сино Шеърлар ва Тиббий достон Тузувчи: А.Ирисов Т.1981
3. С.Аъзамхўжаев ва б.лар 100 Марказий Осиё мутафаккирлари Тошкент Ислом Университети "ЯНГИ НАШР" 2011
4. Ҳ.Жонматова Абу Али ибн Сино таълим-тарбия тўғрисида Т.,"Ўқитувчи 1980 й.
5. Ҳ. Расулов, Ж. Қодиров АБУ АЛИ ИБН СИНО Т.: ТДИУ, 2007.

